

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

MUSTAQILLIK YILLARIDA TEXNIKA YO'NALISHIDAGI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUV ISHLARINI YO'LGA QO'YILISHI

Turdiboyev Bekzod Dilmurodovich

Qarshi davlat texnika universiteti, mustaqil tadqiqotchi.

e-mail: turdiboyevb219@gmail.com .ORCID: <https://orcid.org/0009-0006-4068-4357>

Annotatsiya.

Mazkur ilmiy maqolada 1991–2016-yillar mobaynida O'zbekiston Respublikasining texnika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etish va uning samaradorligini oshirish yo'lida duch kelingan dolzarb muammolar chuqur tahlil qilingan. Mustaqillikning dastlabki yillarida yuzaga kelgan moddiy-texnik bazaning eskirganligi, milliy o'quv-metodik adabiyotlarning yetishmovchiligi hamda ta'lim jarayonining ishlab chiqarish sohasi bilan integratsiyasini ta'minlashdagi qiyinchiliklar atroflicha yoritib berilgan.

Shuningdek, ko'rsatilgan davr mobaynida muhandislik ta'limini bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish, o'quv jarayoniga ilg'or pedagogik va zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Xalqaro talablarga javob beradigan, jahon bozorida raqobatbardosh muhandis kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlarning amaliy natijalari ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, texnika yo'nalishi, o'quv jarayoni, muammolar va yechimlar, moddiy-texnik baza, laboratoriya jihozlari, amaliy ko'nikmalar, muhandislik ta'limi, kadrlar tayyorlash, kredit-modul tizimi, professor-o'qituvchilar salohiyati, raqamli kasbiy kompetensiya.

ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ ОРГАНИЗАЦИЯ УЧЕБНОЙ РАБОТЫ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ ТЕХНИЧЕСКОГО НАПРАВЛЕНИЯ

Турдибоев Бекзод Дилмуродович

Каршинский государственный технический университет, независимый исследователь.

Аннотация.

В данной научной статье проведён углублённый анализ актуальных проблем, возникавших в процессе организации учебного процесса и повышения его эффективности в высших образовательных учреждениях технического профиля Республики Узбекистан в 1991–2016 годах. Подробно освещены характерные для первых лет независимости проблемы, связанные с устаревшей материально-технической базой, недостатком национальной учебно-методической литературы, а также трудностями обеспечения интеграции образовательного процесса с производственной сферой.

Особое внимание уделено вопросам поэтапной модернизации инженерного образования в рассматриваемый период, широкого внедрения в учебный процесс передовых педагогических и современных информационных технологий. С научно-теоретической точки зрения обоснованы практические результаты масштабных реформ, направленных на совершенствование системы подготовки конкурентоспособных инженерных кадров, отвечающих международным требованиям и способных успешно конкурировать на мировом рынке.

Ключевые слова: высшее образование, техническое направление, учебный процесс, проблемы и решения, материально-техническая база, лабораторное оборудование, практические навыки, инженерное образование, подготовка кадров, кредитно-модульная система, потенциал профессорско-преподавательского состава, цифровая профессиональная компетентность.

ORGANIZATION OF EDUCATIONAL WORK IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS OF THE TECHNICAL PROFILE DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Turdiboyev Bekzod Dilmurodovich

Karshi State Technical University, Independent Researcher.

Abstract.

This scientific article provides an in-depth analysis of the key challenges encountered in organizing the educational process and improving its effectiveness in higher education institutions specializing in technical fields in the Republic of Uzbekistan during 1991–2016. Particular attention is given to the problems that emerged during the early years of

independence, including an outdated material and technical infrastructure, a shortage of nationally developed educational and methodological literature, and difficulties in integrating the educational process with the industrial sector.

The article also focuses on the gradual modernization of engineering education during the period under review and the widespread introduction of advanced pedagogical approaches and modern information technologies into the educational process. The practical outcomes of large-scale reforms aimed at improving the system of training competitive engineering professionals who meet international standards and are capable of competing in the global market are substantiated from scientific and theoretical perspectives.

Keywords: higher education, technical fields, educational process, problems and solutions, material and technical infrastructure, laboratory equipment, practical skills, engineering education, personnel training, credit-module system, academic staff capacity, digital professional competence.

Kirish. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab O'zbekiston Respublikasida milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishga yangi texnika va ilg'or texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, zamonaviy bilim va kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lgan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida sanoat, energetika, transport, qurilish, mashinasozlik va boshqa texnik sohalarning barqaror rivojlanishi bevosita yuqori malakali muhandis-texnik mutaxassislarini tayyorlash sifatiga bog'liq edi. Shu sababli oliy texnik ta'lim tizimini yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashtirish, uning mazmuni va tashkiliy asoslarini qayta ko'rib chiqish zarurati yuzaga keldi. Biroq mustaqillikning dastlabki davrida sobiq ittifoqdan meros bo'lib qolgan markazlashgan ta'lim tizimi oliy texnik ta'limni zamonaviy talablar asosida tashkil etishda qator murakkabliklarni keltirib chiqardi. Avvalgi tizimda mutaxassis tayyorlash ko'proq ma'muriy-rejali iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashtirilgan bo'lib, yangi iqtisodiy sharoitda esa ta'limning mazmuni, o'quv rejalari, fan dasturlari va mutaxassislilar tarkibini tubdan yangilash talab etildi. Ayniqsa, texnika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida nazariy bilimlar bilan ishlab chiqarish amaliyoti o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash, talabalarni yangi texnologiyalar bilan ishlashga tayyorlash va ularning mustaqil muhandislik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qoldi. Mazkur davrda texnika oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi ham zamon talablariga to'liq javob bermas edi. Ko'plab laboratoriya va ustaxonalarda ma'nan va jismonan eskirgan jihozlardan foydalanilishi, zamonaviy o'lchash vositalari, kompyuter texnikasi, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari hamda yangi avlod texnologik qurilmalarining yetarli emasligi o'quv jarayonining amaliy yo'nalganligini cheklab qo'ydi. Shu bilan birga, texnika fanlari bo'yicha zamonaviy o'quv-uslubiy adabiyotlar, darsliklar va laboratoriya qo'llanmalarining yetishmasligi ham professor-o'qituvchilar va talabalar faoliyatiga muayyan darajada salbiy ta'sir ko'rsatdi. Yana bir muhim muammo oliy texnik ta'lim mazmuni bilan real ishlab chiqarish ehtiyojlari o'rtasidagi tafovut bilan bog'liq edi. Mustaqillik yillarida mamlakat iqtisodiyotida yangi tarmoqlar, qo'shma korxonalar va zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlari shakllana boshlagan bo'lsa-da, ayrim hollarda oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv rejalari va fan dasturlari bu jarayonlarning sur'atiga mos ravishda yangilanib bormadi. Natijada bitiruvchilarning nazariy tayyorgarligi yetarli bo'lsa-da, ularning zamonaviy ishlab chiqarish uskunolari, avtomatlashtirilgan tizimlar va innovatsion texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish masalasi dolzarb bo'lib qoldi. Shu jihatdan 1991–2016-yillar davomida O'zbekistonda texnika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida o'quv ishlarini tashkil etish tizimi bosqichma-bosqich takomillashtirildi. Davlat ta'lim standartlarining joriy etilishi, bakalavriat va magistratura bosqichlariga o'tish, o'quv reja va fan dasturlarining yangilanishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning kengayishi, xorijiy tajribani o'rganish hamda ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar oliy texnik ta'lim sifatini oshirishga xizmat qildi. Shu bilan birga, professor-o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish, talabalar amaliyotini takomillashtirish va ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash masalalariga ham tobora katta e'tibor qaratildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida tarixiy jarayonlarni xolis va izchil yoritishga imkon beruvchi tarixiylik, xolislik, uzviylik, ketma-ketlik, tizimli tahlil hamda qiyosiy-taqqoslash metodlaridan foydalanildi. Tarixiylik tamoyili asosida O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab texnika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida o'quv ishlarini tashkil etish tizimida yuz bergan o'zgarishlar muayyan tarixiy sharoit va davr talablari bilan bog'liq holda o'rganildi. Xolislik tamoyili esa amalga oshirilgan islohotlarning nafaqat ijobiy natijalarini, balki o'quv jarayonini tashkil etishda uchragan tashkiliy, moddiy-texnik va metodik muammolarni ham bir tomonlama baholamasdan tahlil qilishga xizmat qildi.

Uzviylik va ketma-ketlik metodlari yordamida 1991–2016-yillar davomida oliy texnik ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlarning bosqichma-bosqich rivojlanishi, davlat ta'lim siyosatidagi o'zgarishlar, o'quv rejalari va dasturlarining yangilanishi, ta'lim jarayonining ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvi hamda oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini takomillashtirish jarayonlari o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi. Qiyosiy-taqqoslash usuli orqali esa turli davrlardagi o'quv jarayonining tashkiliy shakllari, texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalarining imkoniyatlari va mavjud muammolaridagi o'zgarishlar solishtirildi.

Tadqiqotning manbashunoslik bazasini mazkur davrdagi oliy ta'lim va ta'lim siyosatiga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlar hamda arxiv hujjatlari tashkil etdi. Xususan, J. Yo'ldoshevning "Ta'limimiz istiqloq yo'lida" asarida

mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston ta'lim tizimini yangilash masalalari yoritilgan bo'lib, undan ta'lim sohasidagi dastlabki institutsional o'zgarishlarni tahlil qilishda foydalanildi. Shuningdek, V. Tyurikov va R. Shagulyamovning "Независимая Республика Узбекистан: Памятные события и даты (1991–1996)" asari mustaqillikning dastlabki besh yilligidagi muhim ijtimoiy-siyosiy va ta'limga oid jarayonlarning tarixiy xronologiyasini aniqlashtirish imkonini berdi. Mazkur asarlar boshqa zamonaviy tadqiqotlarda ham O'zbekiston oliy ta'limi tarixini o'rganishda manba sifatida qo'llanilgan. Ilmiy maqolani tayyorlashda tarixchi olimlar J. Yo'ldoshev, A. Sotvoldiyev, V. Tyurikov, R. Shagulyamov, D. Vasiyevlarning asarlaridan, O'zbekiston Milliy arxivining M-130-fondi hamda Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat instituti joriy arxivida saqlanayotgan manbalardan va boshqa adabiyotlardan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mustaqillikning dastlabki yilida O'zbekiston iqtisodiyotida band bo'lgan aholining umumiy soni 8,255 million kishini tashkil etgan bo'lib, shundan qariyb 1,179 million nafari sanoat tarmoqlarida faoliyat yuritgan. Mazkur ko'rsatkich sanoatning bandlik tuzilmasidagi muhim o'rnini yaqqol namoyon etadi. O'sha davrda sanoat sohasida ishlovchilar jami band aholining 14,3 foizini tashkil etgani bilan ajralib turadi [1]. Bu ko'rsatkichlardan ko'rinib turibdiki, sanoat sohasida kadrlar tayyorlash ishi dastlabki yillarda dolzarb masalalardan biri edi. Shu maqsadda 1992–1993-yillarda oliy o'quv yurtlarida 100 dan ortiq yangi mutaxassisliklar ochildi [14].

Ta'lim sohasidagi islohotlarning birinchi bosqichi O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 2-iyulda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni bilan boshlandi [10]. Mazkur Qonunda ilk marta milliy va umuminsoniy qadriyatlar, tarixiy tajriba, ta'lim-tarbiya sohasidagi ko'p asrlik an'analarga tayanildi. 1993-yil 7-mayda "O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi tufayli avvalgisini yanada takomillashtirishga harakat qilindi [11]. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni asosida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan "Oliy ta'lim islohoti" dasturi ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi. 1992–1993-o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim ikki pog'onali o'qish tizimiga o'tkazildi [9].

1993-yil 5-fevralda "O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlariga abituriyentlarni test usulida tanlash to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi [7]. Qarorga muvofiq, joylarda o'quvchilarni oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlariga test usulida qabul qilish ishlarini muvofiqlashtiruvchi shahar komissiyalari tuzildi. Bu komissiyalar oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida test sinovlarini o'tkazish masalalari bilan shug'ullandi. Test sinovlarining joriy qilinishi bilan oliy o'quv yurtlariga talabalar qabul qilishning butunlay yangi tizimi shakllandi. Test sinovlarining eng muhim tomoni shunda bo'ldiki, respublikaning qaysi hududlarida o'quvchilar qaysi fanlardan past ball olganliklari, qaysi fanlarni bo'sh o'zlashtirganliklari aniq namoyon bo'ldi [4]. 1993–1994-o'quv yilidan boshlab reyting nazorati joriy etildi [8]. Bundan tashqari, qobiliyatli talabalarni aniqlash va ularni o'quv yurtlariga qabul qilishda test sinovlaridan foydalanish yo'lga qo'yildi. 1993–1994-o'quv yilidan mutaxassislarni tayyorlashda ko'p bosqichli ta'lim tizimiga o'tish boshlandi [4]. Xuddi shu davrdan oliy ta'lim muassasalaridagi professor-o'qituvchilarni ishga qabul qilishda shartnoma tizimi joriy etildi. Bu tadbir pedagoglarning mehnat huquqini takomillashtirishga xizmat qildi. Mutaxassislar malakasini oshirish bo'yicha yangi yo'nalishlar kiritildi [14].

Umumiy tahlillar shundan dalolat beradiki, 1993–1994-o'quv yilida respublika xalq xo'jaligi uchun 31,6 mingdan ortiq mutaxassis, shu jumladan, 21,6 ming oliy ma'lumotli kadr tayyorlandi. Bu ko'rsatkichlar kadrlar tayyorlash ishida o'sish bo'lganini ko'rsatgan bo'lsa-da, ma'lum bir qiyinchiliklar ham saqlanib qoldi. Xususan, 1991-yilda O'zbekiston iqtisodiyotida band bo'lgan aholi 8,255 million kishini tashkil etgan bo'lib, shundan qariyb 1,179 million nafari sanoat tarmoqlarida faoliyat yuritgan bo'lsa, 1995-yilda iqtisodiyotda band bo'lgan aholi 8,449 million nafarga yetgan bo'lsa-da, sanoat kadrlari soni 1,093 million nafarga tushib qoldi [5].

Mustaqillikning dastlabki yillarida 15 ta oliy texnika o'quv yurtining mustaqil hayot oqimiga kirib borishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi. Ular orasida Farg'ona politexnika instituti (1967-yil), Toshkent avtomobilsozlik va avtomobil yo'llari instituti (1972-yil), Samarqand arxitektura-qurilish instituti (1980-yil), Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiyasi instituti (1977-yil), Namangan muhandislik-iqtisodiyot instituti (1993-yil), Jizzax politexnika instituti (1995-yil), Namangan muhandislik-pedagogika instituti (1989-yil), Navoiy davlat konchilik instituti (1995-yil), Andijon muhandislik-iqtisodiyot va boshqaruv instituti (1995-yil), Toshkent arxitektura-qurilish instituti (1991-yil), Toshkent mashinasozlik instituti (1989-yil), Toshkent kimyo-texnologiya instituti (1991-yil), Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti (1995-yil), Toshkent davlat aviatsiya instituti (1995-yil), Nukus industrial-pedagogika instituti (1995-yil) shular jumlasidandir [6].

Jumladan, Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat institutida mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab sanoat sohasida kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratildi. Bu maqsadda o'quv ishlari bilan tarbiyaviy ishlar baravar olib borildi. 1992–1993-o'quv yilida kunduzgi ta'lim bo'yicha 4 ta fakultet, kechki ta'lim bo'yicha 1 ta va sirtqi ta'lim bo'yicha 1 ta fakultet faoliyatini davom ettirdi. O'quv yili boshlanishida 29 ta kafedra, ya'ni 12 ta mutaxassis yetishtirib chiqaradigan, 4 ta ijtimoiy, 13 ta umumta'lim va umummuhandislik kafedralari mavjud edi. Bundan tashqari, xuddi shu yili bir nechta kafedralar birlashtirildi, ba'zi kafedralar esa yangidan tashkil etildi. Natijada, o'quv yilining yakunida 30 ta alohida kafedrada ish yo'lga qo'yildi [12]. 1992–1993-o'quv yilida Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat institutida jami 6 179 nafar talaba tahsil olib, shundan 2 527 nafari kunduzgi ta'lim shaklida tahsil oldi. Shu yilgi qabulda 470 nafar talabani qabul qilish rejalashtirilgan bo'lsa-da, qabul kvotalari 3 nafarga to'lmadi [3]. Institut ichki intizomini buzgan 410 nafar talaba o'quv yilida talabalar safidan chetlashtirildi. 1 309 nafar bitiruvchi oliygohni tamomladi. Bitiruvchi talabalarning 15 nafari ma'lum bir sabablarga ko'ra o'qishni yakuniga yetkaza olmadi [3]. Shuningdek, institutda Oziq-ovqat sanoati texnologiyasi, Non mahsulotlari texnologiyasi, Yengil sanoat, Muhandis-muallimlik, Umumtexnika yo'nalishlarida kunduzgi ta'lim shaklida talabalar o'qitilib, eng ko'p — 935 nafar talaba Muhandis-pedagog yo'nalishida ta'lim oldi [13].

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, mustaqillikning dastlabki yillarida sobiq ittifoqdan qolgan eskirgan o'quv-laboratoriya jihozlari va dasturlarning amaliyot talablariga javob bermasligi ta'lim sifatiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Faqatgina keyingi yillardagina zamonaviy asbob-uskunalar va kompyuter texnologiyalari bilan ta'minlash borasida keng ko'lamlı ishlar amalga oshirildi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilinishi bilan ta'lim mazmuni tubdan yangilandi. Biroq o'tish davrida texnika fanlari bo'yicha zamonaviy o'zbek tilidagi darsliklar, o'quv qo'llanmalari va ilmiy adabiyotlarning yetishmasligi jiddiy muammo sifatida saqlanib qoldi. Ta'lim jarayonining amaliyotdan uzilib qolgani muhandislik kadrlarini tayyorlashdagi asosiy to'siqlardan biri bo'ldi. Korxonalar va sanoat tarmoqlari bilan bevosita hamkorlikni yo'lga qo'yish, talabalarning malakaviy amaliyotlarini real ishlab chiqarish obyektlarida o'tkazish mexanizmini shakllantirish bosqichma-bosqich amalga oshirildi. 1991–2016-yillar davomida texnika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida duch kelingan muammolarni bartaraf etish borasida bosqichma-bosqich islohotlar olib borildi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakat sanoati, iqtisodiyoti va infratuzilmasi uchun zarur bo'lgan raqobatbardosh muhandis kadrlarning yangi avlod bazasini shakllantirishga xizmat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Алманах Узбекистана*. – Ташкент: Центр экономических исследований, 2013. – С. 87.
2. Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat instituti joriy arxivi ma'lumoti. O'quv-uslubiy bo'limning 1992/1993-o'quv yili yakunlari yuzasidan hisobot papkasi. – B. 4.
3. Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat instituti joriy arxivi ma'lumoti. O'quv-uslubiy bo'limning 1992/1993-o'quv yili yakunlari yuzasidan hisobot papkasi. – B. 5–6.
4. Yo'ldoshev J. *Ta'limimiz istiqloli yo'lida*. – Toshkent: Sharq, 1996. – B. 120–128.
5. Sotvoldiyev A. Iqtisodiyot – yetakchi soha // *Ma'rifat*. – 2003-yil 26-aprel.
6. Toshkent davlat texnika universiteti tarixi // Toshkent davlat texnika universiteti.
7. Тюриков В., Шагулямов Р. *Независимая Республика Узбекистан: Памятные события и даты (1991–1996)*. – Ташкент, 1997. – С. 73.
8. Vasiyeva D. *Mustaqillik yillarida O'zbekistonda universitet ta'limining rivojlanish tarixi*. – Qarshi: Ilm-Fan-Ma'naviyati, 2024. – B. 14.
9. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi arxivi. 2653-fond, 1-ro'yxat, 6485-ish, 1–2-varaqlar.
10. *O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi*. – Toshkent, 1992. – № 9. – B. 45–58.
11. *O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi*. – Toshkent, 1993. – № 6. – B. 175–176.
12. O'zR Milliy arxivi. 130-fond, 1-ro'yxat, 140-ish, 4-varaq.
13. O'zR Milliy arxivi. 130-fond, 1-ro'yxat, 140-ish, 12-varaq.
14. O'zR Milliy arxivi. 130-fond, 1-ro'yxat, 200-ish, 2-varaq.
15. O'zR Milliy arxivi. 130-fond, 1-ro'yxat, 200-ish, 16-varaq.